



The portrayal of the protagonist's character in the novels "Intiboh" and "O'tkan kunlar"

Oysha SHUKUROVA¹

Tashkent State University of Oriental Studies

ARTICLE INFO

Article history:

Received January 2025

Received in revised form

15 January 2025

Accepted 25 February 2025

Available online

15 March 2025

Keywords:

Namık Kemal,
Abdulla Qodiriy,
Intiboh,
Days Gone By,
character portrait,
artistic depiction,
literary image,
physical appearance,
inner state,
social context,
cultural issues,
moral reflection,
character analysis.

ABSTRACT

This article analyzes the artistic creation of the hero's portrait in Namık Kemal's "Intibah" ("Rebirth") and Abdullah Kadiri's "Days Gone By". Portrait in literature plays an important role in expressing the appearance, inner state of the hero, as well as his life experience. Through the characters of the novel, the writers illuminated social, cultural and moral problems of their time and sought to give the reader instructive wisdom.

Through the portraits of characters in Namık Kemal's "Intibah" and Abdullah Kadiri's "Days Gone By", not only their external appearance but also their inner problems and personality traits are revealed. Through the characters, the writers strive to look into the social and cultural environment of their time. Artistic portraits illuminate not only their appearance, but also their emotional state and moral choices. The portraits reflect not only the characters but also society and its differences.

2181-3663/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss1-pp29-37>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

"Intiboh" va "O'tkan kunlar" romanlarida qahramon portretining berilishi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Nomik Kamol,
Abdulla Qodiriy,
Intiboh,
O'tkan kunlar,
qahramon portreti,
badiiy tasvir,
adabiy obraz,
tashqi ko'rinish,

Mazkur maqola Nomiq Kamolning "Intiboh" ("Uyg'onish") va Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanlarida qahramon portretining badiiy yaratilishiga oid tahlilni o'z ichiga oladi. Portret, adabiyotda qahramonning tashqi ko'rinishi, ichki holati, shuningdek, uning hayotiy tajribalarini ifodalashda muhim o'rin tutadi. Romandagi qahramonlar orqali yozuvchilar o'z zamonlarining ijtimoiy, madaniy va axloqiy muammolarini yoritgan va o'quvchiga ta'limiy hikmatlar berishga intilgan.

¹ PhD student, Tashkent State University of Oriental Studies. E-mail: aishashukurova22@gmail.com

ichki holat,
ijtimoiy muhit,
madaniy muammo,
axloqiy tafakkur,
obraz tahlili.

Nomiq Kamolning “Intiboh” hamda Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” romanidagi obrazlar portreti orqali, nafaqat ularning tashqi ko’rinishlari, balki ichki muammolari va shaxsiyatiga xos xususiyatlarini ham ochib beriladi. Qahramonlar orqali yozuvchilar o’z zamonining ijtimoiy va madaniy muhitiga nazar tashlashga intiladi. Badiiy portretlar ularning tashqi ko’rinishi bilan birga hissiy holatini, axloqiy tanlovlarini ham yoritadi. Portretlar, nafaqat qahramonlarni, balki jamiyatni va undagi tafovutlarini ham aks ettiradi.

Представление портрета героя в романах «Интибах» и «Минувшие дни»

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Намык Кемаль,
Абдулла Кадыри,
Интибах,
Минувшие дни,
портрет героя,
художественное
изображение,
литературный образ,
внешний облик,
внутреннее состояние,
социальный контекст,
культурные проблемы,
моральное осмысление,
анализ персонажа.

Данная статья содержит анализ художественного создания портрета героя в романах Намыка Кемалья «Интибах» («Возрождение») и Абдуллы Кадыри «Минувшие дни». Портрет в литературе играет важную роль в выражении внешнего вида, внутреннего состояния героя, а также его жизненного опыта. Через героев романа писатели освещали социальные, культурные и нравственные проблемы своего времени и стремились дать читателю поучительную мудрость.

Через портреты персонажей в романе Намыка Кемалья «Интибах» и Абдуллы Кадыри «Минувшие дни» раскрываются не только их внешний вид, но и их внутренние проблемы и особенности личности. Через героев писатели стремятся заглянуть в социальную и культурную среду своего времени. Художественные портреты освещают не только их внешний вид, но и их эмоциональное состояние и нравственный выбор. Портреты отражают не только героев, но и общество и его различия.

KIRISH

Adabiyot har qanday millatning ma’naviy dunyosi, tarixiy ongi va milliy qadriyatlarining yorqin ifodasidir. Badiiy asarlarda qahramon obrazi orqali yozuvchi o’z dunyoqarashi, zamon va jamiyatga munosabatini ifoda etadi. Obraz yaratishda esa qahramon portretining o’rni beqiyos bo’lib, u qahramonning tashqi ko’rinishi orqali uning ichki dunyosi, ruhiy holati va hayotiy pozitsiyasini ochib berishda muhim vosita hisoblanadi. Portret tasvirida **obrazlilik** (tasviriylik) badiiy adabiyotda juda muhim jihat bo’lib, obrazlilik qahramonlarning ichki dunyosini va tashqi ko’rinishini o’quvchiga jonli, aniq va chuqur tarzda taqdim etish imkonini beradi. Bu, o’z navbatida, qahramonlarning harakatlari, fikrlari va his-tuyg’ularinining o’quvchi yuragida, ongida chuqur iz qoldirishiga xizmat qiladi. **Obrazli tasvirda** qahramonning portreti faqat tashqi ko’rinishdan iborat bo’lmaydi, balki uning ichki dunyosi, ruhiy holati va psixologik jihatlarini ham anglash imkoni mavjud bo’ladi.

Nomiq Kamolning “Intiboh” va Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” romanlarida o’ziga xos yondashuvlar va badiiy ifodalar yordamida qahramonlarning ijtimoiy va shaxsiy muammolarini ko’rsatishda yozuvchilarning ijodiy yondashuvlari o’zgaradi.

Qahramonlarning portretlari orqali ular o'z zamonining, ijtimoiy tizimining va shaxsiy qarorlarining aks-sadosini tasvirlashadi. Bu esa o'quvchiga qahramonlarni yanada chuqurroq tushunishga va ularning kechinmalarini his qilishga yordam beradi. Mazkur maqola har ikkala romanda portretlarning rolini, ularning o'ziga xos jihatlarini tahlil qilgan holda, mualliflarning badiiy yondashuvlarini, uslubiy xususiyatlarini ko'rsatadi.

MAQSAD VA VAZIFALAR

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi – Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” va G'afur G'ulomning “Intiboh” romanlarida qahramon portretining qanday badiiy vosita sifatida namoyon bo'lishi, portret orqali qahramonlar ichki dunyosi va xarakter xususiyatlarining qanday ochib berilganini tahlil etishdan iborat.

Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilab olindi:

– “O'tkan kunlar” va “Intiboh” romanlaridagi asosiy qahramonlarning portret tasvirini tahlil qilish.

– Portret orqali qahramonlarning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari va ijtimoiy pozitsiyasini aniqlash.

– Har ikki asarda portret tasvirining o'xshash va farqli jihatlarini taqqoslash.

– Portretning badiiy obraz yaratishdagi o'rni va ahamiyatini yoritish.

– Yozuvchilarning individual uslubi va portret berishdagi uslubiy xususiyatlarini ko'rsatish.

USULLAR

Mazkur tadqiqotda badiiy matn tahliliga asoslangan ilmiy-nazariy yondashuvlar qo'llanildi. Asarlardagi qahramon portretlarini o'rganishda quyidagi usullardan foydalanildi:

Ta'limiy-tahliliy (tekstual) usul – romanlar matnidagi qahramon portretlariga oid parchalar tanlab olinib, ularning badiiy va ma'naviy yuki tahlil qilindi.

Qiyosiy tahlil usuli – “O'tkan kunlar” va “Intiboh” romanlaridagi qahramon portretlari o'zaro taqqoslandi, ulardagi o'xshash va farqli jihatlar aniqlandi.

Psixologik tahlil usuli – portret orqali qahramonning ruhiy holati, ichki kechinmalari va dunyoqarashi tahlil etildi.

Stilistik (uslubiy) tahlil usuli – yozuvchilarning portret berishdagi individual uslubi, tasvir vositalaridan foydalanish mahoratlari tahlil qilindi. Bu usullar orqali portret tasvirining obraz yaratishdagi vazifalari, qahramonning ichki dunyosi bilan bog'liqligi va asarning badiiy ta'sirchanligida tutgan o'rni keng qamrovda ochib berildi.

NATIJALAR VA MULOHAZALAR

Nomiq Kamol va Abdulla Qodiriy ijodiyotining o'ziga xosligini, milliyligini, badiiyligi va estetik boyligini namoyish qiluvchi omillardan biri poetik til obrazlilikidir. Atoulloh Mahmud Husayniy “Badoyi' us-sanoyi'” asarida “... umuman, barcha go'zalliklarning asosi uldurkim, nutq ul tarzda ado etilg'aykim, ma'noni anglashg'a, aning latofati, tarkibi va sog'lomlig'ig'a hech bir xalal yetmag'ay. Asos ul emaskim alfozg'a husnu ziynat bermakka say' qilg'aylaru ma'nog'a xalal yetur holdin ko'z yumg'aylar yoxud aksincha xolis ma'no bayon etib, husn-i ado tariqig'a yo'lamag'aylar”, – deb yozadi. Ikki adibning yuksak mahorati samarasi bo'lgan romanlari tilidagi obrazlilik Atoulloh Husayniy ta'rif etgan darajada go'zal, yoqimli va jozibador. “Intiboh” hamda “O'tkan kunlar” romanlari tilining obrazli va ta'sirchan bo'lishida ifoda va tasvir vositalarining roli g'oyat katta. Bir-birini takrorlamaydigan original tashbeh va sifatlashlar (epitet), nozik metaforik obrazlar har ikkala muallif ijodining qon-qoniga singib, uning zaruriy unsurlariga aylanib ketgan. Mazkur maqolada biz adabiy san'atlarning ba'zilarini ikkala ijodkor asarlarida (“Intiboh” hamda “O'tkan kunlar”) personajlar qiyofasi tasviri doirasida kuzatishni lozim topdik.

Yuqorida ham ta'kidlanganidek, Nomiq Kamol roman yozarkan, devon she'riyati an'analaridan butkul uzilolmagani bir necha o'rinlarda ko'zga tashlanadi. Masalan, adib romandagi ayol qahramonlarni tasvirlashda aynan mumtoz she'riyat unsurlaridan keng foydalanadi. Nomiq Kamol yaratgan, "sharq go'zali" Diloshub portreti istioralar tizimidan iborat bo'lib, u o'z o'rnida devon she'riyatida tasvirlanuvchi sevgili tipiga juda o'xshash: "... saçları sırma gibi parlak sarı, alını vicdan temizliğini yansıtan bir ayna denecek surette duru beyaz, kaşları zülfüne oranla biraz kurnrala dönük ve biraz kalın olmakla birlikte biraz da kavisli, gözleri hafif mavi ve son derece sevda uyandıracak kadar mahmur, yüzü aşıkane bir soluk beyaz üzerine parlak gül pembeliğine yakın bir renkle süslü, burnunun rengindeki saflıkla uyumlu güzellik açılmasına bir gün kalmış bir zambak goncasına benzer, dudaklarının gerek inceliği ve gerek pembeliğinin parlaklığı birbirine sarılmış iki gül yaprağı andırırdı. Dudaklarının arasından inci dişleri çiğ damlası gibi görünür, çenesi daha yaprakları dağılmamış bir beyaz katmer gül sanılırdı. Hele gerdanı ... Şeffaflığından dolayı damarlarının dışarıya yansıyan hoş rengiyle o kadar pariardı ki ayın görünen yuvarlaklığı dörtgen biçimine girse ancak bunun eşdeğeri olabilirdi. Boyu bir kadına yakışacak kadar uzun ve her erkeği kendisine bağlayacak mertebede narin, beli on iki yaşında bir çocuğun koluyla tamamen kucaklanacak kadar inceydi. Durum böyleyken baştan ayağa vücudu hafif bir semizlikle kaplı olarak, göğsüyle omuzlarının birleşme yerinde bile büyücek kemik eseri görünmez, nazik parmaklarının her boğumuna iri bir inci tanesi sığabilirdi..." (*Sochlari zarhaldek sariq, peshonasi vijdonining pokligini aks ettiruvchi oyna misoli oppoq, qoshlari zulfiga nisbatan mallaroq va biroz qalin, yoyni eslatardi; ko'zlari yengil moviy rangda va qaraganni muftalo qilib qo'yar darajada xumor, yuzi oshiqona so'lg'in oq ustidan atirgul pushtisiga yaqin rangga bo'yog'liq, burni tiniq yuziga shunchalar moski, ochilishiga bir kun qolgan nilufar g'unchasi misol, lablarining ingichkaligi va yorqin pushti rangi bir-birini quchib turgan ikkita gulbargiga o'xshardi. Dudoqlarining orasidan durdek tishlari shabnam donasidek yaltirab ko'rinar, iyagi misli yaproqlari ochilmagan oppoq guldek... Bo'yni shaffofligidan tomirlari shunchalar go'zal suratda ko'rinib turardiki, ko'zimiz o'rgangan oy to'rtburchak shaklga kirsagina uning bo'yni bilan chiroy talashishi mumkin bo'lardi. Bo'yi ayollarda yarashib tushgan uzun, har qanday erkakni jalb qilardik nozik, beli o'n ikki yashar bolaning qulochini to'ldirar darajada ingichka edi. Shu holatida boshdan oyoq yengil etli bo'lib, hatto ko'kragi bilan yelkalari tutashgan joyda birorta suyak bo'rtib turmas, nozik barmoqlarining har bo'g'imiga yirikroq marjon donasi sig'ardi...*) (68). Diloshub obrazi haqida adabiyotshunos olim Robert Finn shunday yozadi: "Aslida bu joriya qizning shaxsiyati mavjud emas. U Mohpaykarga qarshilantirish uchun o'ylab topilgan, fahsh qarshisidagi pok inson obrazidir". Portreti batafsil tasvirlansa-da, Mohpaykar singari ko'p ta'rifi keltirilmagan Diloshub bir qarashda raqibasining soyasida qolib ketgandek tasavvur uyg'otishi tabiiy. Uning husni ham atayin bo'rttirib ko'rsatilgandek. Ammo asarning asosiy g'oyalaridan biri bo'lgan sadoqat va qadriyatlar aynan shu personaj orqali yoritilgan. Diloshub ham jismonan, ham ma'naviy dunyosi bilan ideal yor timsolini o'zida mujassam etadi. Qolaversa, Nomiq Kamol mumtoz xalq an'analarni davom ettiruvchi, yevropacha ta'lim olgan bo'lishiga qaramay, qadim sharqning axloqiy qadriyatlarini o'zida saqlab qolgan, Mohpaykar singari zamon yo'siniga tushib qolmagan Diloshub obrazini ideal tip sifatida ko'radi. Shu nuqtai nazardan uni Finn aytganchalik ahamiyatsiz obraz deb bo'lmaydi.

Yevropadan kirib kelayotgan yangicha dunyoqarash namoyondasi, yengiltak va jozibador ayol – Mohpaykarning tashqi ko'rinishi, liboslari, pardozi, zeb-ziynati romanning turli fasllarida alohida yoritib boriladi, bu holat muallif nazarda tutayotgan surat va siyrat

orasidagi tazodni oshiribroq ko'rsatishga xizmat qiladi. Ya'ni, adib Diloshub portreti asosida unga bo'lgan simpatiyasini bildirib borarkan, Mohpaykar tasviriga kelganda uning tashqi ko'rinishi har qancha jozibador bo'lmasin, ichki olami shunchalik chirkin ekanini yoritib boradi. Masalan, bir parchada makkoraning g'amboda qiyofasi orqali asl yuzini, aniqroq aytadigan bo'lsak, ikkiyuzlamachiligini ko'rsatishga urinadi: "Dokunakli so'zler en ciddi so'zlerin bile shiddetini artirir. Hanim ise bu gercegi bilmez degildi. Bu yuzden Ali Bey'in duygularini kaynamanin harareriyle erimis bir maden gibi her kaliba dokulmeye uygun gorunce o parlak gozlerine kederli bir ifade yerlestirdi. Zihni arzu ve pishmanligin tereddut karmaşasında acı çekiyormuş gibi bakışını yere doğru dikerek gücenikliğin şiddeti ve sabırsızlıktan oluşan hüznü bir tavırla..." (*Ta'sirli so'zlar eng jiddiy jumlalarning ham shiddatini oshiradi. Xonim esa bu haqiqatni yaxshi bilardi. Shuning uchun Ali beyning tuyg'ularining qaynab eriganini, endi qolipga quyish vaqti kelganini anglagach, porlab turgan ko'zlariga mahzun ifoda joylab oldi. Xomxayol va pushaymonlik ortidan kelgan ikkilanish orasida g'am chekayotgandek ko'zlarini yerga tikdi, singan ko'ngil va sabrsizlikdan iborat g'amnok qiyofada...*)(28).

Boshqa o'rinda esa Mohpaykarning liboslari va ruhiyatini qarshilantiradi: "Kızın taktiklerinden biri de süslenmektir. Yapma beyaz guncalarla işlenmiş bir beyaz entari giyinmiş, başının ön tarafına iki yıldız iğne ile saç bağına tıfıllı bir beyaz karanfil, boynuna ortası elmaslı birkaç dizi inciden yapılmış bir zarif gerdanlık takınmıştı. Başındaki ince tül, arkasındaki feraceyi, ellerindeki eldiveni, ayaklarındaki potini hep entarisinin renginde seçmişti. Cisimleşmiş bir güzellik gibi yukarıdan aşağı beyazlara boğulmuş, yüzü ise meydana getireceği üstünlüğe duyduğu güvenin sevinciyle gayet parlak, gayet tatlı bir renk bağlamıştı" (*Qizning makr usullaridan yana biri o'ziga oro berish edi. Yasama oq gullar bilan bezatilgan oppoq ko'ylak kiygan, boshining old tomoniga ikkita yulduzli to'g'nog'ich, soch bog'iga oq chinnigulni bandi bilan taqib olgandi. Bo'yniga o'rtasiga olmos bilan ishlov berilgan, bir necha shoda nafis marjon taqqan, boshidagi harir ro'moli, orqasidagi yopinchig'i, qo'lqoplari, oyoq kiyimi ham ko'ylagi bilan bir xil rangda edi. Go'zallik majmui singari boshdan-oyoq oqqa burkangan, yuzlari birozdan keyin qozonadigan g'alabasining sevinchidan porlab turar va nihoyatda shirin tovlanardi*) (50). Ko'rinadiki, muallif bu yerda qizning oq libosi, porloq yuzi va qora, xira tortgan ruhiy dunyosini qarshilantiradi. Uning bezaklardan xoli ko'rinishi shunday tasvirlanadi:

"... Üstat elinden çıkma putlardan düzgün yapılı, siyaha dönük samur gibi saçlı, incerek düz kaşlı, noktalı yeşil gözlü, siyah ve uzun kirpikli, hafif sarı üzerine dalgalı koyu al yanaklı, irice çekme burunlu, ufak ağızlı, şehvetinin şiddetini gösterir biçimde ateş gibi kırmızı kalınca dudaklı, her karşısına geleni kucaklayacak gibi yürüyen, insanın kalbine girecek gibi dikkatle bakan bir afet duruyor".

(*Qomati usta qo'lidan chiqqan sanamdan ham go'zal, qoraga yaqin qo'ng'ir sochli, ingichka, tekis qoshli, nuqtali yashil ko'zli, qora va uzun kiprikli, yengil sariqlik ustiga quyilgan to'lqindek – ol yonoqli, yirik, chiroyli burunli, kichkinagina og'izli, shahvatining shiddatini ko'rsatadigan darajada olovdek qizil, qalin labli, har qarshisiga kelganni quchoqlagudek yuruvchi, kishining qalbiga kirib olgudek diqqat bilan boquvchi – ofat turardi*). Adib Mohpaykar siymosida Diloshub singari beg'ubor insoniy go'zallikni emas, kishini vaqtincha chalg'itadigan nafsoniy ishvani tasvirlaydi.

Nomiq Kamol singari Qodiriy Kumushning oqqa burkangan siymosini chizadi, ammo unda qarshilantirish ko'rinmaydi, zero kumushni o'z tili bilan malakka mengzab turgan muallif nega ham uni madh qilmasin: "ul... faqat jong'ina so'raydir, majruh ko'kslarga

o'qqina otadir... Boshdag'i oq shohi ro'ymol, ichdagi oq shohi ko'ynak, ustdagi oq kumush zarrin sirilgan po'stin, baqbaqalarni o'rab o'pib turg'an yoqa qunduzlarining kelishkani, solinib tushkan qora jinggila sochlarning bo'yin tevaragiga chirmashqani, xom nuqra yuzlarning bo'g'riqqani... Kumushbibi lolalar isidagi bir gul va yo yulduzlar orasidagi to'lg'an oy edi (56)". "Oqqa ko'milgan go'zal"ni boshqalardan ajratib ko'rsatuvchi bunday tasvirda ko'rkam hayotiy tashbeh ustuvorligi kuzatiladi.

Diloshub va Mohpaykar obrazlarining portreti o'zaro qiyoslanganda, Diloshub haqida muallif chuqurroq to'xtalganini ko'rish mumkin. Faqat asar mobaynida Mohpaykarning kiyim-boshi, ovozi, pardozi kabi jihatlari yoritilib, qahramonning ko'rinishi haqida yanada kengroq tasavvur paydo bo'lishiga yordam beradi. Ammo bu o'rinda diqqatga sazovor narsa ham shu – Mohpaykarning pardoziyu shahvat uyg'otuvchi jihatlarga ko'p to'xtalingani holda, Diloshubning faqat tabiiy go'zalligiga urg'u beriladi. Romandagi qahramonlar bilan tanishishda avvalo ularning tashqi qiyofasini batafsil yoritish; bunda tashbeh san'atini keng qo'llash devon adabiyoti ta'siridan bo'lib, ayni o'xshash holat ilk o'zbek romanida ham ko'zga tashlanadi: *"Uning qora zulfi par yostiqlarning turlik tomonig'a tartibsiz suratda to'zg'ib, quyuq jinggila kiprak ostidagi timqora ko'zlari bir nuqtag'a tikilgan-da, nimadir bir narsani ko'rgan kabi... qop-qora kamon, o'tib ketkan nafis, qiyig' qoshlari chimirilgan da, nimadir bir narsadan cho'chigan kabi... to'lg'an oydek g'uborsiz oq yuzi bir oz qizillig'a aylangan-da, kimdandir uyalg'an kabi... Shu vaqt ko'rpani qayirib ushlagan oq nozik qo'llari bilan latif burnining o'ng tomonida, tabi'atning nihoyatda usta qo'li bilan qo'ndirilg'an qora xolini qashidi va boshini yostiqlardan olib o'lturdi. Sariq rupoh atlas ko'ynakning ustidan uning o'rtacha ko'kragi bir oz ko'tarilib turmoqda edi. Turib o'lturgach boshini bir silkitdi-da, ijirg'anib qo'ydi. Silkinish orqasida uning yuzini to'zg'ig'an soch tolalari o'rab olib jonso'z bir suratka kirgizdi. Bu qiz suratida ko'ringan malak qutidorning qizi – Kumushbibi edi"* (32).

Kumushning qiyofasi tasvirida "...gan kabi" tarzidagi o'xshatishlar, qolaversa keyingi jumalardagi *"qora qiyiq qoshlarini chimirib, ko'cha yo'lak tomonga qaradi, biroz qarab turdi-da, ayvondan yerga tushib yo'lak tomonga, ariq bo'yiga ketdi"*(34), *"suvning nihoyatsiz bu harakatini uzoq ko'zdan kechirib o'tirgach"*(35) singari tavsirlar uning ichki dardi – o'quvchiga hali noma'lum bo'lgan ishqidan so'zlaydi. Bunday sirli Diloshubda ko'rinmaydi: u Alining uyiga kelar-kelmas, yigitning ta'rifini eshitib unga oshiq bo'lib qoladi, uning sevgisi Kumushnikidek pinhon emas, buni qizning harakatlaridan sezish qiyin emas: *"dunyada mutluluk varsa Bey'in iltifat g'ulushunde bulabileceg'ine yurekten karar vermishti. Bey tarafidan birkaç kez nail olidug'u dikkatli bakishlar ise kalbince birer ilgi mujdesi gorundug'u gibi, o gece ugradigi soguk davranishi bazen Bey'in utanmasina, bazen annesinin amacidan henüz haberdar olmamis olabilmesine yorarak gonlunde henüz meydana gelmeye baslamis olan mutluluk umudu zerre kadar eksilmemis, tersine beklemeyi kendisine zevk edinmishti"* (*dunyoda baxt degan narsani beyning iltifotli tabassumidan topishiga amin edi. Beyning bir necha bor unga diqqat bilan qarashi unga xushxabar darakchisidek tuyular, o'sha kech qizga qilgan sovuq muomalasini goh yigitning uyalganiga, goh onasining niyatidan xabari yo'qligiga yo'yar; ko'nglida paydo bo'layotgan baxt umida zarracha kamaymas, aksincha, kutishdan zavq olardi*) (82). Shunga qaramay, ularning go'zalligida, hayosida, sadoqatida, qo'yingki, o'zini tutishiyu kiyinishida ham umumiylik oz emas. Nomiq Kamol yuqorida ta'kidlanganidek Diloshubning tabiiy holati, hech qanday pardozsiz ko'rinishi ham raqibasidan chandon ustunligini bir necha o'rinlarda ta'kidlab ko'rsatadi: *"Dilashub, Mehpeyker'den kıyas kabul etmez kadar güzel oldug'u gibi namus ve bagliligi da guzelliginin degerini kat kat artırıyordu"* (*Diloshub*

Mohpaykar bilan solishtirib bo'lmaz darajada go'zal bo'lishi bilan birga nomusi va sadoqati chiroyini yanada oshirardi) (85); Bunga Diloshubni birinchi ko'rgandayoq Mohpaykarning o'zi ham amin bo'ladi. Mazkur lavhani yaratishda adib nozik qarshilantirish(tazod)dan foydalanadi: “Bu görüşmede rakibiyle kendini karşılaştırmaya başladı. Fakat feleğin dayanılmaz aksiliğine uğrayarak güneş karşısına geçmiş mehtap gibi yüzünün parlaklığı kendi gözüne de tamamıyla hiç hükmünde göründü” (*bu uchrashuvda raqibi bilan o'zini qiyoslay boshladi. Lekin falakning ayovsiz tersligini ko'ringki, o'zining husni uning oldida oftob qarshisida turgan oy singari xira tortib qoldi*) (91). Mohpaykar o'ziga oro berishga har qancha urinmasin, bari befoyda ekanini ko'radi va buning tasvirida yana tazodga duch kelamiz: “süsüne son derece özenmişti. Dilaşub ise terbiyesi gereği süsünde güzelliğini örtmeye çalışırcasına sade davranmışken yine giyindiğini, takındığını yakıştırmakta yalnız kendisine değil, düğün seyrine gelen güzellerin hepsine üstün gelmişti” (*o'ziga nihoyatda zeb bergandi. Diloshub esa, olgan tarbiyasi tufayli husnini yashirishga urinib har qancha sodda kiyinmasin, libosi-yu taqinchoqlarining bir-biriga mos tushib, yarashib turishidan faqat Mohpaykardangina emas, to'yga kelgan go'zallarning baridan ham ustun edi*) (91). Xuddi shuningdek, har qancha bejirim bo'lmasin, go'zallikda tengsizlik Kumushga ham xosligini ko'ramiz: “Sovsar guli qora atlas ko'ynagini kiyib, boshig'a zangor shohi ro'ymolini soldi va marvarid ko'zlik kichkina oltun halqani qutidan olib qulog'ig'a taqdi. Shu soddagina yasanishdan so'ng, ikkinchi toqchada tirog'liq turg'an ko'zgi yonig'a bordi. Ko'zgi ichidan to'zg'ib, chuvalib ko'ringan soch tolalarini to'g'rilab o'zini kuzatdi. Ko'zgi ichidan ko'ringan malak o'z egasini ham kayflandirib sekingina iljayib qo'ygan edi, narigi yoqdag'i fitnai davron ham sadafdek oq tishlarini yoqut kabi irinlari orasidan ko'rsatkandek bo'ldi” (135).

Mohpaykar va Diloshub qiyofasining qiyosi “Intiboh”da ham ochiq, ham yashirin tarzda bir necha bor ta'kidlansa, Qodiriy Kumush hamda Zaynab o'rtasidagi tafovutni Nomiq Kamolchalik qat'iy chizib ko'rsatmaydi. Yozuvchi “Zaynabni yovuz deya hukm chiqarmaydi” aksincha, uning holatini, iztiroblarini tahlil etadi va juda go'zal talqinni maydonga qo'yadi. Bu haqda adabiyotshunos olim E.Nabi shunday to'xtaladi: “Qodiriyning Zaynabga munosabati gumanitar va realistik... Bu munosabat boshqa mualliflarning ayollar tacvirlangan melodramatik shaklli asarlaridagi munosabatdan butkul farq qiladi. Prozada ijod etgan ko'plab yozuvchilar, garchi ayollarning nisbatan ishonarli obrazlarini aks ettirgan bo'lsalar-da, hech biri Qodiriy kabi uning ichki xususiyatlari, ichki dunyosini bergan emas”. Zaynabning ko'rinishi haqida gap ketarkan, Qodiriy uning qiyofasiga aytarli izoh bermaydi, qisqagina chizgi bilan cheklanadi: “o'n yetti yoshlar chamaliq, kulchalik yuzlik, oppoqqina, o'rtacha husnlik” (160). Yana bir o'rinda uning “qisqa bo'y, go'shtdor va oq tanlik” ekanini aytib o'tadi. Zaynab xarakterining chizgilari asosan uning gap-so'zi, xatti-harakatlari orqali ochiqqlanadi. Qolaversa, romanning “Xushro'ybibi va Zaynab” deb nomlangan faslida opa-singilning har tomonlama qiyosi orqali Zaynab haqidagi tafsilotlar yanada to'liqroq anglashiladi.

Ma'shuqa tasvirida, ko'ringanidek, har ikkala ijodkor ta'rifning boshidan so'ngiga qadar tashbehni izchil qo'llaydi. Bunday holat bir tarafdin tasvirning davomiyligini ta'minlasa, boshqa tomondan uni tobora kuchaytirib boradi. Boshidan oxiriga qadar mubolag'ali tashbeh asosiga qurilgan Nomiq Kamol tavsifida adib badiiy fikrni hayotiy tafsillar bilan asoslash yo'lidan boradi, shu jihatdan uning poetik obrazlari benihoyat aniqligi, soddaligi, yorqinligi bilan ajralib turadi. O'z o'rnida, Abdulla Qodiriyning portret chizgilari bir-birini takrorlamas darajada mukammal bo'lib, personajlarning kitobxon tasavvurida konkret inson bo'lib gavdalanishida beqiyos o'rin tutadi.

XULOSA

Ikkala romandagi ta'riflar ham vaqt bilan bog'liq bo'lmagan, lirik bo'yoqlardagi ma'lum tartibda tuzilgan "ro'yxat"dan iborat bo'lib, ularda go'zallik va xunuklikning mentalitet, dunyoqarashga xos timsolini ko'ramiz. Go'zallik timsolini yaratishar ekan, ijodkorlar mahbuba go'zalligini bo'rttirish, yanada kuchaytirishni maqsad qilib olishadi. Nomiq Kamol ham, Abdulla Qodiriy ham o'zlarining tasvir doiralarining ehtiros daryosiga insoniy ehtirosning g'oyatda tiniq, juda ham sermavj to'lqinlarini olib kirishadi, ularning go'zallik bobidagi barkamolligidan hayratlanishadi. Bu holat, ya'ni portret chizish – juda katta so'z ustaligi bilan bezalganligida, ma'shuqa vujudi latofatining mubolag'ali tasvirida kuzatiladi. Biroq, Nomiq Kamol Qodiriydan farqli o'laroq tashqi go'zallik va ruhiy chirkinlikni qarshilantirishga katta o'rin beradi. Buni asosan Mohpaykar, qolaversa sqiq tasvirda bo'lsada, Pertev og'a obrazlari misolida ko'rishimiz mumkin. Bunda muallif topqirlik bilan mahbubani ta'riflar ekan, rang va harakatga ko'proq e'tibor beradi. Tashbehtar, bo'rttiruvchi sifatlashlar lirik mubolag'alar bilan uyg'unlikda asosiy fikrni namoyon qilishda foydalaniladi. Nomiq Kamolda shartlilik, batafsillik, Qodiriyda ssiqlik ustuvorligini ko'ramiz, ya'ni turk adibi she'riyat dunyosidagi shartli o'xshatishlarni ishlatgan holda Diloshub ta'rifida batafsil to'xtaydi: qoshlar – yoy kabi, peshona – vijdon oynasidek tiniq; sochi – zar misoli, yuzi – nilufar guli, lablar – atirgul yaprog'i, tishlari – shabnam kabi. Nomiq Kamol Diloshub go'zalligining umumiy ta'rifini berar ekan, malakka o'xshatadi: u shunchaki go'zal emas, xulqini ham qo'shadigan bo'lsa, farishtaning o'zginasi (71), Ali bey ham uning "go'zallik nurlaridan to'kilgan malak" ekanini tan oladi(85). Aynan shunday o'xshatish Qodiriyda ham mavjud: muallifning o'zi Kumushni *"qiz suratida ko'ringan malak"*(33) deb ta'riflasa, Otabek uning *"ko'nglining farishtalar ko'nglidek"* ekanini ta'kidlaydi(153); hatto Yusufbek hoji bilan avvaldan Kumushni o'ziga dushman bilgan O'zbek oyim ham unga maftun: *"Yusufbek hoji "bu odam farzandi emas – farishta" der, orada Zaynab bo'lmasa "farishta" deb atamoqqa ham hozir"*(333). Nomiq Kamol va Abdulla Qodiriy qahramonlarning o'ziga xos qirralarini yoritishda mazmunan va shaklan mutanosiblikka erishishgan, shu maqsadning poetik ifodasi uchun imkon beruvchi mubolag'adan yuksak darajada foydalanishgan, tashbehtar uchun realistik xarakterdagi detallarni mubolag'ali tarzda qo'llashgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Namik Kemal. İntibah: Sergüzeşt-i Ali Bey. Türkiye İş Bankası Kültür Yayınları. İstanbul 2018.
2. Qodiriy A. O'tkan kunlar. – Toshkent. "Sharq" nashriyot-matbaa konserining bosh tahririyati, 1995.
3. Қуроноу Д. Адабиётшуносликка кириш. – Т., 2004.
4. Алимбеков А. Танзимат даври турк адабиёти. Маърузалар матни. – Т.: ЎЗМУ, 2002.
5. Husayniy Atoullloh. Badoyi' us-sanoyi'.-Toshkent: G'G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981.
6. Йўлдошев Қ. Роман жанрининг етакчи белгилари ва бугунги ўзбек романларига хос хусусиятлар/ Озод ватан саодати. Т.5. Адабий танқид. – Т.: Adib, 2013.
7. Karim B. Abdulla Qodiriy va gurmenevtik tafakkur. Т., "Akademnashr", 2014.
8. Robert P. Finn, The Early Turkish Novel 1872-1900, The Isis Press, Istanbul 1984.
9. Eden Naby/ Transitional Central Asian Literature: Tajik and Uzbek prose fiction from 1909 to 1932. – Columbio University 197.

10. Адабий турлар ва жанрлар. (Тарихи ва назариясига оид). Уч жилдлик. Т. 1. Эпос. – Т.: ФАН, 1991.
11. Болтабоев Ҳ. Наср ва услуб: услуб муаммосига назарий нигоҳ ва ҳозирги ўзбек насрида услубий изланишлар – Т.: Фан, 1992.
12. Норматов У. Умидбахш тамойиллар. – Т.: Маънавият, 2000.